

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KREATIVLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Eltayeva Saida Nurqulovna
*Sirdaryo viloyati maktabgacha va
maktab ta’limi boshqarmasi
BSITIMTTFM sho’ba mudiri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Kreativlik TRIZ texnologiyasini qo‘llashda individual va jamoa shaklida ishlash yaxshi samara berishi. Jamoa bo‘lib ishlashda evristik o‘yinlar, aqliy hujumdan foydalanish bolani ijodiy izlanishga yo‘naltirishlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, triz, intuitsiya, tafakkur, irsiyat, strategiya*

«Kreativlik - bu har bir insonga tug‘ilishi bilan hadya etiladigan, ammo tarbiya, ta’lim va ijtimoiy faoliyat tizimida yo‘qolib boradigan ijodiy yondashuvdir» Haqiqatan ham, shaxsga ta’sir etuvchi irsiyat, tarbiya, atrof-muhit kabi omillar bolaning kamol topishida muhim ahamiyatga ega hamda bu faoliyat davomida bolada:

- ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
- ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish;
- fikrlashda tizimlilik;
- harakatchanlik qobiliyati yoki o‘z-o‘zini rivojlantirish;
- yechim qidirish uchun kuch va imkoniyat topish;
- ijodiy intuitsiya;
- nutq rivojlanishi kabi jihatlarga alohida e’tibor berish zarur.

Abu Nasr Forobiy o‘zining «Baxt saodatga erishuv» nomli asarida ta’kidlashicha, ta’lim-tarbiya berish ikki usulda bo‘ladi. Birinchi usul amaliy fazilatlar hamda amaliy san’atlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish yo‘lidir, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi:

birinchi yo‘l - qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul - majbur etish yo‘lidir. Bu usul gapga ko‘nmaydiganlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ammo ulardan qaysi biri nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo‘lib, unda kasb hunarlar va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lsa, uni majbur etmaslik kerak. Chunki maqsad uni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahliga aylantirishdir. Tarbiya berish usuli, Forobiyning fikricha, ikki turda bo‘ladi.

Birinchi usul - san’atni o‘z rag‘batlari bilan o‘rganuvchilarga ishlatiladigan usul.

Ikkinchi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul.

Pedagog bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalanishi mumkin. Uning fikricha, «Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ilm ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasdan, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin». Bola kreativligini rivojlantirishda aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e‘tibor qaratish kerak. Rag‘batlantirish metodi bolani ijodiy yondashish, fikr-mulohaza qilish, mustaqil fikrlashning asosini belgilab beradi. Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishning ommaviy (frontal) shakliga ham alohida zaruriyat mavjud. Ommaviy tarzda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuni ko‘pincha badiiy tavsifga ega faoliyat ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, musiqa mashg‘ulotlari, sahna ko‘rinishlarini namoyish etish, o‘yin-sayohatlar, san‘at asarlari bilan tanishish va boshqalar. Bunday mashg‘ulotlarda aqliy faollikni oshirishga undovchi «emotsional ta‘sir ko‘rsatish» yaxshi samara beradi, bolaning o‘z-o‘zini namoyon eta olishiga imkon beradi. Ekskursiya – bolalarga ta‘lim berishning maxsus shakli. U o‘zida tabiiy sharoitda bolalarni tabiat, madaniy ob‘ektlar, kattalar mehnati bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Ekskursiya vaqtida bolalar olamning turfa xilligi, rivojlanishini anglaydilar, narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni kuzatadilar. Ilk va kichik guruhda ekskursiya maktabgacha ta‘lim muassasasining ichkarisida, yer maydonchasida, o‘rta guruhdan boshlab muassasadan tashqarida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Ekskursiya uyushtirishni rejalashtirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

1) ekskursiya narsa-hodisalarni dastlabki yorqin, yaxlit idrok etilishini ta‘minlashi kerak;

2) bolalarning tanish ob‘ekt yoki hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, umumlashtirish uchun takroran ekskursiya uyushtiriladi. Takroriy ekskursiya bola dastlabki ekskursiya paytida kuzatgan ob‘ekt, hodisalarning yangi sifat va xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ekskursiya o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan aniq tarkibiy tuzilishga ega: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish. Alvin Toffler ijodkorlik chuqur, murakkab, muammolarni hal etishda muhim vosita ekanligini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari, Toffler ijodiy fikrni muammolar va muammolarni ko‘rib chiqish va yangi yo‘llar bilan duch keladigan qiyinchiliklar sifatida ko‘rib chiqadi. Toffler «Bolalarning kelajakni tasvirlashini va kelajak haqida fikrlashini qo‘llab-quvvatlashimiz kerak», deb ta‘kidlagan. Ijodkor bolalar tez o‘zgaruvchan va ko‘plab muammolar bilan shug‘ullanish uchun yangi va innovatsion usullarni tushunadigan bo‘lishlari mumkin. Torrens ijodkorlikni «betartiblikdan tashqariga chiqish» deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi.

Torrens ijodiy fikrlashga o‘rgatishning 4 ta asosiy sababini keltirdi:

1. Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.
2. Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.
3. Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.

4. Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.

Kreativlik ijodiy qobiliyat hisoblanib, yechilmagan vazifalarni hal etishni talab etadi, stereotip tafakkur qobiliyatini inkor etadi. Mana shu davrdan unumli foydalanilmasa, bolalarda rivojlanish jarayonlari sust kechadi. Har bir bola takrorlanmas shaxsiy sifatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Pedagogning vazifasi esa boladagi kreativlikning yuzaga kelishini ko‘ra olish va ularning ijodiy faoliyati rivojlanishiga stimul berishdan iborat. Ilmiy yangiligi. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda hozirgi kunda turli texnologiyalar mavjud. Shu jumladan TRIZ (Yaratuvchanlik qobiliyatini aniqlash nazariyasi) texnologiyasi juda samarali va qulay hisoblanadi. TRIZ texnologiyasi asoschisi G.S.Altshuller bo‘lib, u barchada «ijodiy qobiliyat» mavjudligini ta’kidlaydi. Ijodiylik yoki har qanday qobiliyatni rivojlantirish mumkin. Izlanish jarayoni, yangilik topish, yaratuvchanlik ta’limning asosiy mazmunini ifodalaydi. TRIZ texnologiyasini qo‘llashda individual va jamoa shaklida ishlash yaxshi samara beradi. Jamoa bo‘lib ishlashda evristik o‘yinlar, aqliy hujumdan foydalanish bolani ijodiy izlanishga yo‘naltiradi. TRIZ texnologiyasi orqali bolalarda xayol rivojlantiriladi. Tasavvur shunday muhim ahamiyatga egaki, bunda hali faoliyat jarayoni boshlanmasdan oldin natijalarni ko‘z oldiga keltirishga imkon paydo bo‘ladi. Xayol mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, avval idrok qilinmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazlarini yaratishdan iborat bo‘lgan ong faoliyatidir. Xayolning boshqa psixik hodisalardan yana bir farqi shundan iboratki, u hozirgina emas, balki o‘tmish va uzoq kelajakni ham aks ettira olishga o‘rgatadi. Olingan natijalar tahliliga ko‘ra, bolada qaysi kasbga nisbatan qiziqishi, qobiliyati yuqori ekanligi aniqlanadi. Bolaning tanlovidagi biror-bir ish quroli, ish joyi yoki avtomashina boshqa kasbga taalluqli bo‘lsa, bolaga ushbu kasb to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Agar ushbu kasb ma’qul bo‘lmasa, bolaga tanlagan ish quroli, ish joyi va avtomashinaga aloqador kasbga yo‘naltiriladi. Bolalarda xayolning ikki turi mavjud: Tasavvur xayoli – ongimizda mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, ob’ektiv voqelikda mavjud bo‘lgan, biroq biz idrok qilmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazlarini yaratishdan iborat. Ijodiy xayol – mustaqil ravishda hech narsaga o‘xshamagan yangi obrazlar yaratish. Ijodiy tasavvurning asosiy shakli orzu hisoblanadi. Orzu bolaga kelajakda o‘zi istagan obrazlarni yaratishga turtki beradi. Agar bolada nimanidir bajarish istagi paydo bo‘lsa, maqsadni to‘g‘ri qo‘ya olishga o‘rgatishimiz kerak. Ularda yuzaga kelgan muammo yechimini o‘ylash va o‘z oldiga maqsad qo‘yishi lozimligini uqtirib borish lozim. Bu vazifalarni hal etish uchun u mustaqil ravishda muammoni yechish yo‘llarini izlaydi, ijodiy faoliyat yuritadi. Ijodkor bola shaxsini shakllantirishda G.Altshuller va I.Vertkinning «Ijodkor shaxsning hayotiy strategiyasi» tamoyilini qo‘llash ijobiy natija beradi.

G.Altshuller va I.Vertkin ijodkor shaxsning quyidagi asosiy sifatlarini tasniflaydi, ular:

1. Aniq maqsadni tanlash qobiliyati.
2. Muammoni ko‘ra olish qobiliyati, maqsadga erishishga tez olib boradigan yechim topish.
3. Ishni rejalashtira olish qobiliyati va bajarilgan ishlarni muntazam nazorat qilish.
4. Rejada belgilangan ishlarni yuqori ishchanlik kayfiyatida bajarish.

5. Har qanday holatda ham o‘z fikr va qarashlarida mustahkam turish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash yuqori samara beradi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan har bir texnologiya bolani yaratuvchanlik, ijodkorlik, mustaqillikka yo‘naltiradi. Biz bu borada jahon tajribasidan o‘z milliy men talitetimizga xos bo‘lgan jihatlarni olishimiz maqsadga muvofiq. Bugungi kunda jahon maktabgacha ta’lim tizimida italiyalik mashhur pedagog Mariya Montessorining o‘z davridagi butun insoniyatga quyidagi murojaati mavjud: «Bizda shunday muammo bor, kattalar rivojlanishning diqqat markazida turadi. Agar hokimiyat e’tiborini bolalarga, ularning qalbiga qaratssa, biz tinchlik hukm suradigan dunyoni quramiz. Bilim – tinchlik qurolidir»² (muallif tomonidan tarjima qilingan). Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonning mahsuldorligi pedagogning bolalarni yaxshi bilishi, ta’lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo‘llashiga bog‘liq. Bolalar ilk yoshidan boshlab, rag‘batlantirish va ma’qullaganni yaxshi va xursandlik bilan qabul qilishadi. Kattalar bahosiga befarq, qiziqmaydigan bolalar ushbu so‘zlarning ma’nosini farqlamaydilar, bu ularning u yoki bu darajada intellekti rivojlanmaganidan dalolat beradi. Aloqa qilishdan qochish ko‘pincha autik bolalar hulqida kuzatiladi va ularda muloqotga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligini ko‘rsatadi. Uch yoshdan katta bolalar harakatlaridagi xatolarni mustaqil topa oladilar. Bunda ko‘rgazma-harakatli vaziyatning ma’lum bir tomonlarini elementar nutqiy ifodalashda (Endi to‘g‘rimi? Bundaymi yoki bunday emasmi? Voy, endi to‘g‘ri bo‘ldimi?) namoyon etadilar So‘ngra ular o‘z xatolarini to‘g‘rilab kerakli natijaga erishishga harakat qilishadi, qiynalishsa kattalardan yordam so‘rashadi. Bolalarning omadsizlikka munosabati boshqacha bo‘lishi ham mumkin: birinchi qiyinchilikdayoq qiziqishning yo‘qolishi, topshiriqni sust bajarishi, eksperimentlarning qolganida ishtirok etishdan voz kechish; to‘g‘ri natijaga erishishda to‘sqinlikka uchrashi, topshiriqning ma’nosini tushunmasligi faoliyatini tormozlanishiga olib keladi. Tadqiqot davomida psixolog aqliy faoliyatning barcha strukturasini sinchiklab ko‘rib chiqib, alohida topshiriqni bajarish natijasiga emas, balki faoliyatni sifatli tahlil qilish tamoyiliga rioya qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda bolalarning kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda quyidagi xulosaga kelamiz:

- ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ijodiy fikrlash uchun aqlni turli sohalarda ishlashga o‘rgatish kerak;
- kattalar tomonidan majburlash, «uni o‘yna», «buni o‘yna», «xato qilding», «mana bunday bajar» qabilida ish tutish bola ijodkorligiga zid uslublardir. «O‘zim bajarishim uchun menga yordam ber» qabilida ish yuritish maqsadga muvofiqdir. Bola erkin «kim bilan», «nima bilan», «qachon» tushunchalarini o‘zi hal qilsin. O‘zi ko‘rib, eshitib, harakat qilib, mushohada, ya’ni mantiqiy fikrlay olsin;
- dasturiy ma’lumotni bosqichma-bosqich murakkablashtirish yo‘nalishida amalga oshirilishi zarur: kuzatilgan hodisalar ko‘lamini kengaytirish va u yoki bu hodisalar haqidagi bilimlarni ketma-ketlikda chuqurlashtirish va umumlashtirish;

- ekskursiyada ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar birgalikda hal etilishi lozim. Shuning uchun o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar hajmini rejalashtirish hamda qanday his-tuyg‘u, munosabat, axloqiy sifat, estetik ehtiyojlarni faollashtirish avvaldan o‘ylanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abraham Harold Maslow. «Climate for Creativity» in Taylor C.W. NYC: Perga/non Press, 1972.
2. Al-Farabi. Sotsialno-eticheskie traktaty. - Alma ata, 1976.
3. Toffler Alvin (ed.): Learning for Tomorrow. NYC: Vintage, 1974.
4. Torrance E.P.: Creativity. Belmont, Calif.: Pearson, 18-page, 1969.
5. Alshuller G.S., Vertkin I.M (Kak stat geniem: Jiznennaya strategiya tvorchestkoy lichnosti. – Mn.: «Belarus», 1994.
6. Montessori Maria. From Childhood to Adolescence. Oxford, England: ABC-Clio, 1994.